

O‘ZBEK TILIDA HAZIL NUTQIY JANRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TO‘G‘RISIDA AYRIM MULOHAZALAR

Diyora AVEZMURATOVA,
Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya
fakultetlararo chet tillari o‘qituvchisi
E-mail:diyoraaa@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek lingvomadaniy xulqi asosida yaratilgan hazillarda o‘zbek lingvomadaniy dunyosi aks etishi masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, hazil, nutqiy janr, lingvomadaniyat, mutoyiba

Аннотация. В статье анализируется проблема отражения узбекского лингвокультурного мира в шутках, созданных на основе узбекского лингвокультурного поведения.

Ключевые слова: узбекский язык, юмор, речевой жанр, лингвокультура, поэзия.

Annotation. The article analyzes the problem of reflecting the Uzbek linguistic and cultural world in jokes created on the basis of Uzbek linguistic and cultural behavior.

Key words: Uzbek language, humor, speech genre, linguistic culture, poetry

To‘plab o‘rganilgan materiallar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi hazil nutqiy janri quyidagi xususiyatlar bilan harakterlanadi:

O‘zbek lingvomadaniyatida “hazilkash” so‘zi orqali insonning hazil qiluvchi, yaxshi tabiatli, quvnoq, samimiy inson ekanligiga ishora qilinadi. Hazil qilishni yaxshi ko‘radigan, bir-biri bilan hazillashadigan, hazilvon[1] so‘zlari orqali insonlarning do‘stlik, yaqin munosabatlarda ekanligi tushuniladi. “Askiyachi” so‘zi esa so‘zlashuv nutqida insonning xushchaqchaq, sodda, kamtarin ekanligidan ham darak beradi. Ammo “masharaboz” so‘zi kinoya, kesatiq, kamsitish, haqorat kabi bir qator salbiy ma’nolarga ega.

O‘zbek halqining diniy e’tiqodi o‘zbek odob ahloq qoidalarini shakllantirishda ustuvor. O‘zbek xalqi diniy madaniyatida musulmon kishilarining o‘z hayotlari davomida o‘z ruhiyatlarini hazil-mutoyiba va shirin so‘zlar, qiziqarli hikmatlar bilan boyitib borishlari, umrlari zavqli va fayzli o‘tishini ta’minlashi kerak, ammo hazil vaqtida so‘zlar va holatlarning meyorida ishlatilishi qat’iy talabdir[2]. Islom dini hazil orqali kishilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatu ehtiromga putur yetkazmaslik talab qilinadi.

Musulmon an'analarida hazilning o'z meyori bo'lib, hazil-mutoyibaning had-dan ziyoda bo'lishi mazaxga aylanib ketishiga, kishining ustidan kulish, masharalash, haqoratlash ma'nosiga o'tib ketmasligi kerak.

O'zbek lingvomadaniyatida hazil-mutoyibada meyoridan oshmaslik, hazil-mutoyibada ozor bermaslik, hazil-mutoyibada yolg'ondan saqlanish kabi ijtimoiy meyorlarga amal qilinadi.

Hazil orqali mazax qilish qalbni o'ldiradi, adovatni meros qiladi hamda kichiklarni kattalarga nisbatan hurmatsizlikka undaydi, deb rivoyat qilinadi. Umar (roziyallohu anhu): "Kim ko'p kulsa, haybati kamayadi va kim ko'p hazil qilsa, uni bepisand qiladi", dedi.

Hazillarda kishilarning ustidan kulish, shaklu shamoyili, rangi yoki biror kamchiligini masxara qilish mumkin emas. (Ulamolar aytadi: "Inson Alloh taolo qurgan binodir. Mana shu binoni vayron qilgan kishi mal'undir". Bunda hazil nafaqat insonni, balki uning yaratuvchisi bo'lgan Alloh taoloni masxara qilish bilan tenglashtiriladi.

Hazil-mutoyibada yolg'ondan saqlanish masalasi. Yolg'onning turi ko'p, barchasidan saqlanish kerak, deb hisoblaniladi. Kishilar davrasida bo'lganlarning ba'zilar kulgili qissalarni, hikoyalarni so'zlayotganida eshitayotganlarni kuldirish, ularga xursandchilik ulashish maqsadida yolg'on to'qiydilar. Bu yolg'ondan din qaytargan va Payg'ambar (sollallohu alayhi va sallam) qattiq qoralagan.

Diniy kitoblarda yolg'onning ko'payib, tarqalishiga qoralanadi. Shu sababli, 1-aprel hazil kunini nishonlashni qoralaydi va "1 aprel yolg'oni" (aldash kuni) nomi bilan keng tarqalgan yomon odat sifatida baholanadi.

O'zbek lingvomadaniyatida hazil uchun tanlangan mavzularda cheklovlar mavjud bo'lib, hazil-mutoyiba shariat xukmlariga til tekkizishdan yiroq bo'lishi kerak, deb qat'iy chegaralash bor. Bu borada "Shariat qildan nozik, qilichdan o'tkir", degan metaforik gap bejiz aytilmagan. Dinimizda hukmlar borki, ularni hazillashib aytish ham chin hisoblanadi. Ahli ilmning ustidan kulish esa Alloh taoloning ilm sifatini kamsitish, masxara qilish bilan tenglashtiriladi.

O'zbek lingvomadaniyatida hazil-mutoyibada faxsh va uyat so'zlar, behayo qiliqlar ishlatilmasligi kerak. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Mo'min kishi gap suquvchi ham, ko'p la'natlovchi ham, faxsh so'zlarni aytuvchi ham, odobsiz ham bo'lmaydi", deganlar (Imom Termiziy rivoyati).

Inson gapirayotgan so'zi xoh chin, xoh hazil bo'lishidan qat'iy nazar, uning so'zlarini yozib turuvchi farishtalar hozir turganini, yaxshi gaplariga mukofot, bekorchi va yomon gaplariga azob berilishini yoddan chiqarmasligi zarur.

O'zbek lingvomadaniyatida hazilning kimga, qanday qilish kerakligi diniy qoidalar bilan ham belgilanadi. Masalan, Nabiyy Sollallohu Alayhi Vassallam bu

gaplarida hazillashib, onalarimizni, ayollarni billurga o‘xshatibdilar[3]. Demak, shariatdan erkak kishining o‘z ayollariga ularning ko‘nglini ko‘tarish uchun hazil gap aytishiga ruhsat bor. Inson har kimga ham hazil qilavermasligi kerak. Sa’d ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhu o‘z o‘g‘liga bunday dedi: “Obro‘li, hurmatli kishilarga hazil qilma, o‘rtada hasad va adovat yuzaga keladi. Razil, pastkash odamga ham hazil qilma, senga nisbatan jur‘atli bo‘lib qoladi”.

Hazil nutqiy janrida noverbal, ya’ni til vositalarisiz ifodalanadigan hatti-harakatlar majmui asosida yaratiladigan hazil turlari mavjud. Ular bevosita san‘at darajasiga ko‘tarilganda, pantomima, komediya janrlarini shakllantiradi. O‘zbek tilida xatti-harakat va imo ishoralar bilan ifodalanuvchi hazil harakatlari mavjud. Ammo bu odat diniy tarafdin qoralanadi. Birovning narsasini so‘roqsiz olib hazillashish ham mumkin emas. Abdulloh ibn Soib roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Sizlardan biringiz o‘z birodarining matosini hazillashib ham, chindan ham berkitmasin. Kim birodarining xassasini olgan bo‘lsa ham qaytarsin”, dedilar (Imom Termiziy rivoyati).

Birovni qo‘rqitish, cho‘chitish – hazil emas. Hazillashib bo‘lsa xam musulmon kishini cho‘chitish harom. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sahobalar bilan o‘tirganlarida ulardan biri uxlab qoldi. Bir kishi arqonni ilonga o‘xshatib uxlagan hamrohiga tekkizdi. Shunda u cho‘chib uyg‘onib ketdi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam unga qarata: “Musulmon kishi uchun boshqa bir musulmonni cho‘chitishi halol emas”, dedilar (Imom Abu Dovud rivoyati).

O‘zbek tilida quyidagi ijtimoiy mavzularda hazil qilish uchraydi[4]. Masalan, bayramlar, bolalar, er xotin o‘rtasidagi munosabatlar, haydovchi, internet, kasalxona, o‘qish, maktab, millatlar, jinoyatlar, ishxona, hayvonot, afandi, qaynona-qaynota, ertaklar, ovqatlanish, do‘kon-bozor, sport, do‘stlar, piyonista, salomatlik, mavsumlar, sevishganlar, harbiylar, DAN xodimlari, uddaburonlar, yoshlar, soliq, qora yumor, o‘zbekona, ota-ona, pul-boylik, qo‘shnilar, qariyalar, to‘yda, lof-yolg‘on, boshliqlar, haqiqat-adolat, transportda, erkaklar, uchrashuv, firibgarlar, ustoz-shogird, talabalar, militsiya, jinnilar, dugonalar, telefon, shifokorlar, tilaklar, qarz, shoh va boy, janjal, sudda, musofirlar, kaltafahmlar, oila, televizor, narx-navo, kelinlar, bemorlar, ofitsiant, kafe-restoran, tanishuv, mehmon-mezbon, salomatlik, majlis, yig‘ilish, o‘ynash-jazman, dorixona, kompyuter, o‘qituvchi-domla, mashxurlar, she‘r, ovchi-baliqchi kabilar.

O‘zbek lingvomadaniyatida er va xotin munosabatlarida arzimagan sabablar uchun ajrashib ketish odati deyarli uchramaydi. O‘zbek milliy diniy tarbiyasida er va xotin munosabatlarida er va xotinni sabrli bo‘lishga chaqiradi va bu er-xotinning bir-birlariga har qanday sharoitda ham chidab yashashlariga undaydi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilish mumkinki, o‘zbek lingvomadaniy xulqi asosida yaratilgan hazillarda o‘zbek lingvomadaniy dunyosi aks etadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, бешинчи жилд, Тошкент, 2020, 478 бет
2. Алимов. У. Оилада фарзанд тарбияси”, “мовароуннахр” нашриёти,
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуфнинг Одоблар хазинаси 1-китобидан/ <http://hazratnavoi.uz/maqolalar/1267-azil-mutoyiba.html>
4. Latifa.uz — Энг сара латифалар сайти!